



«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDİSLARI İNSTITUTI»  
MILLİY TADQIQOT UNIVERSİTETİ



FAN:

**✖MELIORATSIYA VA SUV XO'JALIGI  
TEXNIKALARI EKSPLUATATSİYASI**

MAVZU

02

MELIORATSIYA VA  
TEXNIKALARINING  
KO'RSATKICHLARI

SUV XO'JALIGI  
EKSPLUATATSİON



ATAJANOV ADILJAN  
USENOVICH



GIM kafedrası  
dotsenti v.b.



## ✖ REJA:

- ✖ 1. Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari
- ✖ 2. Ekspluatatsion ko‘rsatkichlarining ta’riflari.
- ✖ 3. Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ish unumдорligи.

## O‘quv mashg‘ulotida ta’lim texnologiyasi modeli

### 1-mavzu: Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 32
O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	Ma’ruza
Ma’ruza rejasi/ o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari</li> <li>2. Ekspluatatsion ko‘rsatkichlarining ta’riflari</li> <li>2. Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ish unumдорligi.</li> </ol>

O‘quv mashg‘uloti maqsadi: Kirish. Fanning mazmuni, maqsad va vazifalari bo‘yicha bilimlarni shakllantirish

Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari:
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari to‘g‘risida umumiyl tushunchalar hosil qilish.</li> <li>2. Ekspluatatsion ko‘rsatkichlarining ta’riflari</li> <li>3. Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ish unumдорligi.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari bo‘yicha tushunchaga ega bo‘ladi</li> <li>2. Ekspluatatsion ko‘rsatkichlarining ta’riflari</li> <li>3. Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ish unumдорligi to‘g‘risida umumiyl ma’lumotlar va tushunchalarga ega bo‘ladi.</li> </ol>
Ta’lim usullari	Ma’ruza., Insert, B/B/B, tushuntirish, Klaster
Ta’lim shakli	Ommaviy
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
Ta’lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob Yozma nazorat:B/B/B

# O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta’lim beruvchi</i>	<i>Ta’lim oluvchi</i>
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish 15 daqiqa	<b>1.1.</b> Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni yetkazish. Mashg‘ulot rejasи bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy 50 daqiqa	<b>2.1.</b> Savol-javob orqali bilimlarni faollashtiradi. <b>2.2.</b> Insert usulidan foydalanib, talabalarni melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalari ekspluatatsion ko‘rsatkichlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar to‘g‘risida bilimlarini aniqlaydi.(1-ilova) <b>2.3.</b> B/B/B usulidan foydalanib Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ko‘nikmasini aniqlaydi(2-ilova). <b>2.4.</b> Asosiy tushunchalarga ta’rif beradi.	Javob beradilar. O‘qiydilar, yozib boradilar. Tushunchalarni muhokama qiladilar. Ma’lumotlarni daftarga qayd qiladilar. Kuzatadilar, muhokama qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy 15 daqiqa	<b>3.1.</b> Mavzu bo‘yicha yakun yasaydi, ushbu fanni kelgusidagi kasbiy faoliyatlaridagi axamiyatini ochib beradi. <b>3.2.</b> Mustaqil ishni bajarish bo‘yicha tavsiyalar beradi.	Savol beradilar. Yozib oladilar.

**Insert** texnikasini qo'llagan xolda ish yuritish qoidalari matnni o'king.

qatorlariga qalam bilan belgilar qo'yib, olingan ma'lumotlarni tizimlashtiring:

v – mavjud bo'lgan bilimlarga mos keladi;

- - ..haqidagi bilimlarga e'tiroz bildiradi;

+ - yangi ma'lumotlar hisoblanadi;

? – tushunarsiz qo'shimcha ma'lumot talab qilinadi.

**B/B/B (Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim)**

«Insert» texnikasidan foydalanib matnni o'qing.

Olingan ma'lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo'yilgan belgilar asosida jadval qatorlarini to'ldirib chiqing.

t/r	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.	1. Kirish. Asosiy tariflar, tushunchalar. 2. Melioratsiya va suv xo'jaligi texnikalarining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini ayting. 3. Ekspluatatsion ko'rsatkichlarining ta'riflarinimadan iborat? 4. Melioratsiya va suv xo'jaligi texnikalarining ish unumдорligi nimadan iborat?			

- ✖ Texnika ishchi jihozlarining o'lchami va ishlov berish radiusi
- ✖ Quvvati
- ✖ Tortish kuchi
- ✖ Harakat tezligi
- ✖ O'tuvchanligi
- ✖ Harakatchanligi (chaqqonligi)
- ✖ Manevrchanligi
- ✖ Foydalanishga qulayligi

## Melioratsiya va suv xo‘jaligi texnikalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar:

- Ishlash xavfsizligi.
- Texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirbobligi.
- Solishtirma yonilg‘i sarfi.
- Ish qobiliyati.
- Ishonchliligi.
- Uzoq muddat ishlashi.
- Ish unumi.
- Bir birlik ishlov beriladigan mahsulotning tannarxi.

- ✖ Texnika **ishchi jihozlarining o‘lchami va ishlov berish radiusi** uning qurilish ishlardagi imkoniyatini belgilab, materiallar o‘lchami, bir siklda yuklanishi yoki ishlov berilishi mumkin bo‘lgan materialarning hajmi, yuklash imkoniyatini belgilaydi.
- ✖ Ishchi jihozlarning xarakteristikasiga quyidagilar kirishi mumkin:
  - Cho‘michning (kovshning) geometrik o‘lchami (ekskavator, skreper, yuklagichlar)
  - Ag’dargichlarning (otvallarning) uzunligi va balandligi (buldozer, greyder, planirovshik)
  - Yuk momenti (kranlar)
  - O‘tkazib yuboruvchi teshiklarning diametri (tosh maydalagichlar)


- Aralashtiruvchi barabanning hajmi (beton aralashtirgich yoki qorishma aralashtirgichlar)
- Kovlash chuqurligi, radiusi va ko‘tarish balandligi (bir cho‘michli ekskovatorlar).

**Quvvati, tortish kuchi** (ilmoqdagi, ishchi jihozning, yurish qurilmasining) va mashinalar-ning yoki ishchi jihozlarning qo‘zg‘alish tezligi, ularning ish bajarish hajmi yoki berilgan mexanik xossalari bo‘yicha materiallarga ishlov berishini aniqlab, ularning maqbul ish rejimi va harakatlanishini o‘rnatish imkonini belgilaydi.

## O‘tuvchanligi – texnikaning ishchi va transport holatda

harakatlanish imkoniyatini belgilaydi. Mashinaning o‘tuvchanligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlarga gruntga beriladigan solishtirma bosim miqdori, harakatlanuvchi jixozlarining tishlashish sifati, ko‘ndalang va bo‘ylama o‘tish radiusi, yerdan balandligi va boshqalar hisoblanadi.

- ❖ Gruntga berilayotgan solishtirma bosim, yurish qismining ilashish xossalari, ko‘ndalang va bo‘ylama tekisliklarda burilish radiusi ( $r_1$  va  $r_2$ ), oldingi va keytingi kirish burchaklari ((1 va (2), yuza va mashina orasidagi tirqish ( $h_1$ ,  $h_2$  va  $h_3$ ) va mashina gabarit o‘lchamlari mashinaning o‘tuvchanligini izohlovchi ko‘rsatgichlar hisoblanadi (1-rasm).



### 1-rasm. Mashinaning o‘tuvchanligi sxemasi:

- ❖ r<sub>1</sub> va r<sub>2</sub> – bo‘ylama va ko‘ndalang o‘tuvchanlik radiusi;
- ❖ h<sub>1</sub>, h<sub>2</sub> va h<sub>3</sub> – mashina ish tirqishining minimal va maksimal qiymatlari; (1 va (2 – kirish va chiqish burchaklari.

## Gruntga berilayotgan solishtirma bosim

mashinaning ekspluatatsion og‘irligi (konstruktiv massasi, yonilg‘i, moy,sovutish suyuqligi, asbob uskunalar va jixozlar og‘irligi) va tashqi vertikal yo‘naltirilgan kuchning yurish qismining yer bilan kontakt yuzasiga nisbati bilan aniqlanadi.

- ✖ Agarda massa va tashqi kuchlarning vertikal tashkil etuvchisi mashina yurish qismi kontakt yuzasi og‘irlik markazidan o‘tgan bo‘lsa solishtirma bosim haqiqiy bosimga teng deb qabul qilinadi. Har xil sharoit uchun haqiqiy bosim qiymati o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Lekin qator mashinalar uchun gruntga berilayotgan solishtirma bosim orqali ularning o‘tuvchanligi nisbiy baholanadi (1-jadval).

Yurish qismining tuproq yoki grunt bilan tishlashish ko‘rsatgichlari mashinaning tortish kuchi qiymatiga ta’sir etadi.

**Texnikanining burilish radiusi uning burilish imkonini beradigan eng kichik maydonni aniqlash imkonini beradi.** Bo‘ylama va ko‘ndalang burilish radiuslari hamda kirish burchaklari havfli ko‘tarilish yoki tushish imkoniyatini baholaydi.

**GRUNTGA BERILADIGAN BOSIMNING RUXSAT ETILGAN  
QIYMATLARI**

<b>Grunt va uning holati</b>	<b>Ruxsat etilgan bosim, kPa (kgs/sm<sup>2</sup>)</b>	
	<b>O‘rtacha</b>	<b>Maksimal*</b>
<b>Botqoq</b>	<b>5-10 (0,05-0,1)</b>	<b>40-60 (0,4-0,6)</b>
<b>Botqoqlashgan grunt</b>	<b>10-15 (0,1-0,15)</b>	<b>80-100 (0,8-1,0)</b>
<b>Loy, qum, shudgor</b>	<b>20-30 (0,2-0,3)</b>	<b>200-400 (2-4)</b>
<b>Qum va o‘rtacha namlikdagi loy</b>	<b>20-45 (0,2-0,45)</b>	<b>400-600 (4-6)</b>
<b>O‘rtacha namlikdagi loy</b>	<b>50-60 (0,5-0,6)</b>	<b>600-700 (6-7)</b>
<b>O‘rtacha namlikdagi zichlangan loy</b>	<b>70-100 (0,7-1)</b>	<b>800-1000 (8-10)</b>
<b>Zichlangan loy</b>	<b>110-130 (1,1-1,3)</b>	<b>1100-1500 (11-15)</b>

## Harakatchanligi (chaqqonligi) – tezlikni tez oshirish,

balandlikni yengib o‘tish va ajratilgan (bel-gilangan) ish joyiga moslanuvchanligi va mashina-ning tashishga mo‘ljallanganligi bilan belgilanadi.

- ✖ **Manevrchanligi** - tor joylarda mashinaning burila olish qobiliyati.
- ✖ **Foydalanishga qulayligi** – mashinaning berilgan sharoit uchun o‘rnatilgan parametrlardan ruxsat etilgan og‘ishlar bilan ishni bajara olish qobiliyati tushuniladi. Mashinaning o‘rnatilgan kamayish chegarasigacha ishlab berish vaqtidagi foydalanishga qulayligi (asosiy ta‘mirga extiyoj bo‘lganda) **foydalanish qulayligining resursi** deyiladi.

**Texnika ish unumi va birlik mahsulot tannarxi melioratsiya va qurilish mashinalaridan samarali foydalanishni aniqlovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.**

**Texnika ish unumi** – birlik vaqtda mashina tomonidan bajarilgan ish hajmi (mahsulot) bilan belgilanadi.

**Texnikaning nazariy ish unumi** to'xtovsiz ravishda birlik vaqtda qabul qilingan ish sharoitida mashinalar tizimi va ish kunidan to'la foydanilgan holda bajarilgan ish hajmi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich mashina texnik tavsifida keltirilib, undan bir o'lcham va tipdagi yoki guruhdagi mashina sifatini baholashda foydalaniladi.

**Nazariy ish unumi** har bir mashina uchun bir qiymatga ega bo‘lib, u mashina konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Nazariy ish unumini quyidagi ifodalar yordamida aniqlash mumkin.

- ✖ **Siklik harakatdagi mashina uchun** **Pk = Qn,**  
(1)
- ✖ bu yerda: **Q** - mashina bir siklida olingan birlik ish hajmi (massa, dona)dagi mahsulotning hisobiy soni; **n** - ishchi sikllar soni, **p = 3600/t;**
- ✖ **t** - mashina bir siklning hisobiy davomiyligi, s.

- × Uzluksiz harakatdagi mashinalar uchun mahsulotga uzluksiz oqimli ishlov berishda
- ×  $P_k = 3600 \text{Avg} , \quad (2)$
- × bunda: A - mahsulot yoki ashyo hisobiy ko‘ndalang kesim yuzasi, m<sup>2</sup>;
- × g – mahsulot yoki ashyo zichligi, t/m<sup>3</sup>;
- × v - mahsulot yoki ashyoga ishlov berishning hisobiy tezligi, m/s.

## Texnik ish unumi - bu

mashinaning optimal ish sharoiti  
(takomillashgan boshqaruv, ish va  
xizmat ko'rsatishini tashkil etish) da  
uzluksiz birlik vaqtda maksimal ish  
hajmi hisoblanib, bir tur yoki tipdagi  
mashina uchun har xil qiymatga ega  
bo'lishi mumkin.

**Texnik ish unumi** ko‘rsatkichidan mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish sxemalari, mashinalar jamlanmasini tanlashda, mashinalardan foydalanish samaradorligini aniqlashda hamda ekspluatatsion ish unumini oshirish rezervlarini ishlab chiqishda (texnik va ekspluatatsion ish unumini solishtirish orqali) foydalaniladi.

- ❖ **Ekspluatatsion ish unumi** - ishlab chiqarish jarayonidagi texnik to‘xtalishlarni hisobga olgan xolda birlik vaqtida mashina bajargan ish hajmi hisoblanib, aniq bir sharoit uchun hisoblanadi.
- ❖ Texnik to‘xtatishlarga mashinaga texnik xizmat ko‘rsatishdagi, salt harakatlanish hamda rejali to‘xtalishlar vaqti kiritiladi.
- ❖ **Melioratsiya va qurilish mashinalarining ekspluatatsion ish unumi** Pe quyidagi bog‘liqlikdan aniqlanadi:
- ❖ 
$$Pe = Pt Kv , \quad (3)$$
- ❖ Bu yerda: Pt – mashinaning texnik ish unumi;  
Kv-mashinaning smena vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti.

Ekspluatatsion ish unumi yordamida mexanizatsiyalashgan ishlarni meyorlashda, rejalah-tirish jadalligidan kelib chiqib mashinalarga bo‘lgan talabni aniqlash hamda ishlarni taxlil qilish texnologiyasini va yangi mashinadan foydalanish samara-dorligini baholash ko‘rsatishlari aniqlanadi.

## Mashinaiar tomonidan bajari-ladigan birlik ish hajmi tannarxi quyidagi formula yordamida hisob-lanadi:

- ✖  $Ct = Sm / Pf$  ( )
- ✖ bu yerda: Sm—mashina-smena bahosi;
- ✖ Pf - mashinaning smenadagi xaqiqiy ekspluatatsion ish unumi.

**Birlik ish hajmi tannarxi mashinaning ish unumdorligini oshirish va mashina-smena bahosini kamaytirish hisobiga kamaytirilishi mumkin.**

**Mashina smena bahosi** quyidagi tashkil etuvchilarga bo‘linadi: o‘zgarmas (mashina ko‘chirib o‘tkazish va ishga tayyorlash xarajatlari); doimiy ekspluatatsion (amortizatsion ajratmalar) va o‘zgaruvchan ekspluatatsion (ish haqi, yoqilg‘i-moylash materiallari bahosi, energiya, texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash ishlari bahosi).

- ❖ **Mashina ish qobiliyati** ishga qobiliyatatlilik ko‘rsatkichi bilan baholanadi va u quyidagi formula yordamida aniqlanishi mumkin:
  - ❖  $Kr = Pf / Pe,$
  - ❖ bu yerda: Pf - haqiqiy ekspluatatsion ish unumi;
  - ❖ Pe - hisobiy ekspluatatsion ish unumi.

Mashina ish qobiliyati foydalanish

jarayonida kamayib boradi va ma'lum bir ish hajmi bajarilgandan so'ng mashinada nosozlik va buzilishlar sodir bo'ladi.

**Nosozlik** – ish qobiliyatining buzilishi hisoblanadi.

**Buzilish deganda**, mashinaning biron, bir ko'rsatkichi texnik talab yoki myoriy texnik hujjatlarda belgilangan holatga mos kelmasligi tushuniladi.

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 oktyabrdagi "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4486-son qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagи "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6024-son Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
- 3.Vafoev S.T. Melioratsiya mashinalari. (Darslik), -T., "Fan va texnologiya", 2013.304 b.
- 4.Vafoev S.T., Musurmanov R.K. Qurilish va melioratsiya mashinalarini ishlatish. (O'quv qo'llanma). Toshkent-"Tafakkur bo'stoni" 2015 y, 400 b.
- 5.В.М.Саньков ва бошқалар. Практикум по эксплуатации и ремонту мелиоративных и строительных машин. М.:Колос, 1981 – 208 б.
- 6.Пискентбоев Қ.И. Техник сервис ва таъмирлаш корхоналарини лойиҳалаштириш.–Т.: Ўқитувчи, 2000 й.
7. Atajanov A.U. «Meliorativ qurilish mashinalarini ishlatish» (o'quv qo'llanma). Toshkent “DAVR” nashriyoti. O'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi. 2011yil 17 sentyabr 392 sonli buyruq. 2012 yil/ 164 bet.



«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDİSLARI İNSTITUTI»  
MILLİY TADQIQOT UNIVERSİTESİ



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



**ATAJANOV  
ADILJAN  
USENOVICH**

**GIM kafedrası  
dotsent v.b.**



+ 998 71 237 19 27

[adiljanatajanov@mail.ru](mailto:adiljanatajanov@mail.ru)

[@adiljanatajanov](https://t.me/adiljanatajanov)